



KIBER JINOYATCHILARNING NAYRANGLARIDAN EHTIYOT BO'LING

*Mirobod tumani IIO FMB Tergovchisi
Begmatov Jasur Abdinabievich*

Annotatsiya: Ushbu maqolada kiber jinoyatchilar tomonidan firibgarlik yo'i bilan qanday holatlarda fuqarolardan bank plastik karta raqamlarini qo'lga kiritayotganligi va qanday tuzoqlar qo'yilayotgani haqida gap boradi.

Kalit so'zlar: kiber jinoyatchilar, bank plastik karta, avans.

Kirish: Ma'lumki zamonaviy dunyoni turli xil texnologiyalardan foydalanmasdan tasavvur qilib bo'lmaydi. Ma'lum bo'lishicha, bugungi kunga kelib har kuni xalqaro internet tarmog'ida 420 mingdan ziyod zararlangan dasturiy viruslar tarqatilmoqda. 2006 yillarda ushbu ko'rsatkich 1,4 mingtani tashkil qilar edi. Bu esa xalqaro internet tarmog'idagi kiberhujumlar diapazoni o'tgan o'n besh yil ichida kamida 300 marta oshganidan dalolat beradi.

Ayni paytda xakerlar tomonidan viruslar orqali amalga oshirilayotgan kiberhujumlar juda xatarli tus olmoqda. Tarqatilayotgan viruslarning aksariyati bank xizmatlarini ko'rsatadigan jahon axborot tarmog'ini zaiflashtirish orqali, u erdan moliyaviy ma'lumotlarni o'g'irlashni ko'zlaydi.

2023 yil tahlillaridan ma'lum bo'lishicha, bank-moliya soxasidagi yirik muassasalar, onlayn to'lov jarayonlarini amalga oshiruvchi tizimlar, savdo majmualari, mehmonxona va savdo terminallari eng ko'p foydalaniladigan markazlar xakerlarning asosiy diqqat markazida turadi.

Misol uchun, Carbanak kiber jinoyatchilik guruhi hamda uning SWIFT nomli xakerlari bank va bir qator moliyaviy institutlardan har yili 1 mln AQSH dollaridan ziyod mablag'ni o'g'irlaydi. Bu turdag'i jinoyatlarni amalga oshirish katta mablag' keltirgani hamda bu jinoyatlarni fosh etish qiyin bo'lgani sababli ham, bugun xakerlik jinoyatlari va shunga o'xshash axborot xurujlari soni ortib bormoqda.

Shuningdek, "Securitymagazine" sayti ma'lumotlariga ko'ra, bugun dunyoda har 39 daqiqada xakerlik hujumlari uyushtiriladi va bundan har yili 30% amerikaliklar zarar ko'rishadi. Shu munosabat bilan bu sohada sodir qilinayotgan yoki sodir etilishi rejalashtirilayotgan jinoiy qilmishlarni o'z vaqtida oldini olish, ularni sodir etilishiga olib kelgan omillarni chuqur tahlil qilish, amalga oshirilgan



kiber tahdidlar va axborotlashtirish qoidalarini buzish holatlari bo'yicha tergov amaliyotini tubdan takomillashtirish dolzARB masala sanaladi.

Asosiy qism: Shu o'rinda aytish mumkinki firibgarlardan ogoh bo'ling begona shaxslarga bank kartangiz to'g'risidagi ma'lumotlarni zinxor bermang. Aks holda kiber jinoyatchilar tomonidan sizning bank plastik kartangizdan noma'lum sabablarga ko'ra pul echib olinishi va sizning nomingizga bankdan kredit olinishi mumkin. Siz o'zingiz ishongan insonga bank plastik kartangizni 16 ta raqaini berishingiz mumkin. Biroq o'zingizni ism va familiyangizni, bank plastik kartasini amal qilish muddatini xamda telefon raqamingizga ulangan plastik karta bo'yicmha kelgan SMS tasdiqlash kodini zinxor begonalarga bera ko'rmang.

Kiber jinoyatchilar va firibgarlar tomonidan Siz tasodifiy o'yinda g'olib bo'ldingiz, sovruni olishingiz uchun kartangiz ma'lumotlarini va telfoningizga kelgan kodni bizga aytishingiz kerak mazmunidagi, bundan tashqari Siz OLX.uz ilovasiga qo'ygan e'loringiz bo'yicha maxsulotni xarid qilmoqchiman. Bank plastik kartangizga oldindan avans yubormoqchiman, faqat menga avval karta ma'lumotlaringizni so'ngra SMS dagi tasdiqlash kodini ma'lum qiling hamda o'zini Milliy bank xodimi deb tanishtirib sizning plastik kartangizga kiber jinoyatchilar tomonidan xujum bo'layotganligini zudlik bilan telefon raqamiga kelgan SMS kodni unga aytishni u plastik kartada mavjud pul mablag'ini saqlab qolishga ishontirgan xolda telefon raqamiga kelgan SMS kodni qo'lga kiritib, plastik kartadagi pul mablag'lari kiber jinoyatchilar tomonidan o'zlashtiriladi. Bunday xatolikka yo'l qo'y mang va kiber jinoyatchilarining nayranglariga ehtiyoj bo'ling.

Hurmatli fuqarolar, siz hozirgi kunda axborot tizimifan, shu jumladan axborot texnologiyalaridan foydalanib sodir etilgan (kiber) jinoyatchilikdan aziyat chekyapsizmi, sizga tegishli bo'lgan mol-mulkingiz yoki boshqa turdag'i huquqlaringiz poymol bo'lmoqdamasi-siz o'rnatilgan tartibda davlat organlariga murojaat eting. Sizning murojaatlaringiz e'tiborsiz qoldirilmasdan, qonuniy tartibda ko'rib chiqiladi xamda bu haqda sizga ma'lum qilinadi. O'z haq-huquqlaringiz poymol bo'lishiga yo'l qo'y mang.

Xulosa: Ushbu xulosa o'rnida ta'kidlash lozimki, kiber jinoyatchilarining nayranglariga aldanib qolgan ko'pgina jabrlanuvchilarining shaxsan o'zlarini tomonidan bilib bilmagan holda jinoyatchilarga o'z shaxsi xaqida hamda bank plastik karta ma'lumotlarini berib yuborishi oqibatida jinoyatning qurbaniga aylanib qolmoqdalar. Shuni qo'shimch tariqasida ma'lumot sifatida aytib o'tish maqsadga muofiq yani internet ijtimoiy tarmog'i orqali kelgan ilovalarga zinhor shaxs o'zi haqidagi va plastik karta ma'lumotlarini kiritmasliklarini so'rab qolgan bo'lar edim.



Adabiyotlar ro'yxati:

1. Jo'raev.F. Kiberjinoyatlar tushunchasi, belgilari va shaxsiy izquvarlik mahorati orqali ularni oldini olish va fosh etilishining ahamiyati haqida ayrim mulohazalar.
2. Ismailova I. Kriminalogiya. Umumiyl qism: IIV oliv ta'lim muassasalari uchun darslik.